

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGINING PROFILAKTIKASIDA INSPEKTOR PSIXOLOGLARINING O'RNI

Shamshiyev Muslimbek

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Andijon viloyati boshqarmasi
Buloqboshi tumani Bolalar bilan ishlash bo'limi inspektor psixologi katta
leytenant*

Davlatimiz yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni to'la-to'kis amalga oshirib kelmoqda. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Huquqbuzarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi masalasi faqatgina bir tashkilot zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasdan, bu yo'nalishda tizimli faoliyatni olib borish maqsadga muvofiq bo'lishi haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayapti", deb ta'kidlagan.

Shu fikrlardan kelib chiqqan holda biz inspektor psixologlar faoliyatini belgilab beruvchi omil sifatida, umumta'lim maktablarida profilaktika ishining vazifalari quyidagilardir:

- Bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish;
- Voyaga yetmaganlarning qarovsizligini oldini olish
- Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va singdirish;
- Ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xarakterdagi muammolar va qiyinchiliklarni hal qilishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish.

Umumta'lim maktablarida huquqbuzarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: umumiy (jamoaviy) profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika.

Umumiy (jamoaviy) profilaktika – bu o'quvchilarning umumiy jamoasiga qaratilgan, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, o'quvchilarning huquqiy ongini o'stirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan



voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir.

Garchand, shu kunga qadar ham ichki ishlar organlari tomonidan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirib kelingan bo'lsada, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi ichki ishlar organlari bo'linmalarining faoliyati samaradorligi yetarli natija bermadi, deb o'ylaymiz. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021 yil 12 fevralda o'tkazilgan Ichki ishlar vazirligi kengaytirilgan Hay'ati yig'ilishida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda yo'l qo'yib kelinayotgan ayrim kamchiliklar ko'satib o'tilib, ushbu yo'nalishda ishlashning yangi mexanizmi taklif etildi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori qabul qilindi.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarimizning sifat-samaradorligini oshirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida muntazam targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish bo'yicha muhim vazifalarni o'z ichiga qamrab olgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5 fevraldagi 55-sonli qarori bilan voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni, qonun buzilishlarini oldini olish vazifasini bajarish o'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi zimmasiga yuklatildi. Shuningdek, inspektor-psixologlar uchun yangi joriy qilingan tizim asosida, ularning psixologik muhitni yaxshilash, qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash vazifalarini yuklash belgilandi.

Maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkaziladi. Yaqinda ularga qator qonunbuzarliklarni sodir etganlarga nisbatan jazo qo'llash vakolati berilgandi.

Maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkaziladi. Bu haqda 5-fevral kuni Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sohalarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan o'tkazgan yig'ilishida ma'lum qildi.

Majlisda maktablarda og'riqli masalalardan biri, bu — tarbiya va ma'naviyat ekani qayd etildi.



“So‘rov maktab direktoridan bo‘layapti, lekin Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiyaga mas‘ul hokimlar har hafta bitta maktabga borib, o‘quvchilarni sharoiti va tarbiyasi bilan shug‘ullanmayapti”, — deya qayd etdi prezident.

Shu munosabat bilan maktablardagi inspektor-psixologlar shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazilishi belgilandi.

Eslatib o‘tamiz, voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixologlarga:

- Voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaganligi uchun ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ma‘muriy jazo qo‘llash (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47-moddasining 1-qismi);

- Ta‘lim muassasalari hududi va uning atrofida o‘quvchilar tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarni oldini olish va maktablarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma‘muriy bayonnoma tuzish hamda belgilangan tartibda jazo chorasini qo‘llash (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 56–1, 183, 187-moddasi 1-qismi);

- Voyaga yetmaganlarni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga (spirtli ichimliklarni, giyohvandlik vositalari yoki odamning aql-idrokiga, irodasiga ta‘sir qiladigan moddalarni iste‘mol etishga) jalb qilgan shaxslarga nisbatan ma‘muriy jazo qo‘llash (Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 188-moddasi) vakolati berilgandi.

Bu nizom bilan, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samarali va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda, va inspektor-psixologlar bu protsessda katta ahamiyatga ega.

Addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - shaxsga xos turdagi amal yoki holatga nisbatan qaramligi. Masalan, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik.

Asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid) - jamiyatning qoida va tartibiga qarshi kelish, ma‘naviyatsizlik va huquqqa qarshi bo‘lish xulq-atvori. Bu holatda inson uydan ketish, o‘z dunyosiga bekas olish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish, o‘zini-o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilishga yo‘l qo‘yishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasining avvalgi tizimi huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganni tegishli ta‘sir chorasini ko‘rish maqsadida aniqlashni ko‘zda tutgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-



tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarorini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5 fevraldagi 55-sonli qarorini qabul qilishdan asosiy maqsad, g'ayriijtimoiy harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlanishini inkor etmagan holda:

Birinchiidan, inspektor-psixologlarning xizmat xonasini umumta'lim maktablarida joylashtirib, har bir o'quvchini bevosita o'rganib, ularning orasidan tarbiyasi og'ir va g'ayriijtimoiy harakat sodir etishga moyillarini ajratish;

Ikkinchiidan, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarning kelajakda huquqbuzarlik odir etishiga omil bo'lib xizmat qilayotgan holatlarni (nosog'lom muhit, og'ir moddiy yoki ijtimoiy hayot va h.k.) Bartaraf etish yo'li bilan huquqbuzarlikni olini olish;

Uchinchiidan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmaganni aniqlab, uni qayta tarbiyalash yo'li bilan huquqbuzarlikning oldini olish hisoblanadi.

Zero, katta hayotning ilk bosqichlarida shaxsga berilgan jazo, ushbu jazo adolatli bo'lsa ham voyaga yetmagan shaxsning butun umrini izdan chiqarib yuborishiga olib keladi

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2833-sonli Prezident qarori.<https://lex.uz/docs/-3141186>

2. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlikva huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 8-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-T.,2010.,-№39.

